



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

LOUISE GLÜCK, ANNE CARSON VA ADRIENNE RICH SHE'RIYATIDA KLASSIK MIFNING QAYTA TALQINI

Nuriddinova Fotima

Namangan davlat chet tillari instituti, tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy Amerika she'riyatida klassik mifologiyaning qayta talqin qilinishi Louize Gluk, Anne Karson va Adrienne Rich ijodi misolida qiyosiy poetik tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqotda uch shoiraning mythopoeticsga oid yondashuvlari – ideologik qayta o'qish, ontologik transformatsiya va psixologik ichkilashtirish modellari aniqlanadi. Adrienne Rich poetikasida mif feminist diskurs doirasida ijtimoiy va madaniy tanqid vositasiga aylanishi, Anne Karson ijodida individual ong tajribasining estetik modeli sifatida namoyon bo'lishi, Louize Gluk she'riyatida esa sub'ektiv ruhiy tajribaning psixologik ifodasiga aylanishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida zamonaviy she'riyatda mifologiyaning yangi funksional paradigmasi shakllangani asoslanadi.

Kalit so'zlar: klassik mifologiya, zamonaviy Amerika she'riyati, ayol sub'ektivligi, intertekstual talqin, poetik transformatsiya, Louise Gluk, Anne Karson, Adrienne Rich.

ПЕРЕОСМЫСЛЕНИЕ КЛАССИЧЕСКОГО МИФА В ПОЭЗИИ ЛУИЗЫ ГЛЮК, ЭНН КАРСОН И ЭДРИЕН РИЧ

Нуриддинова Фотима

Наманганский государственный институт иностранных языков, исследователь

Аннотация

В статье на основе сравнительного поэтического анализа исследуется переосмысление классической мифологии в современной американской поэзии на примере творчества Луизы Глюк, Энн Карсон и Эдриен Рич. В работе выявляются их основные мифопоэтические модели: идеологическое переосмысление, онтологическая трансформация и психологическая интериоризация. Показано, что в поэтике Эдриен Рич миф становится инструментом социально-культурной критики в рамках феминистского дискурса; в творчестве Энн Карсон он предстает как эстетическая модель индивидуального сознательного опыта; в поэзии Луизы Глюк — как психологическое выражение субъективного внутреннего переживания. В результате исследования обосновывается формирование новой функциональной парадигмы мифологии в современной поэзии.

Ключевые слова: классическая мифология, современная американская поэзия, женская субъективность, интертекстуальная интерпретация, поэтическая трансформация, Луиза Глюк, Энн Карсон, Эдриен Рич.

REINTERPRETATION OF CLASSICAL MYTH IN THE POETRY OF LOUISE GLÜCK, ANNE CARSON, AND ADRIENNE RICH

Nuriddinova Fotima

Namangan State Institute of Foreign Languages, Researcher

Abstract

This article examines the reinterpretation of classical mythology in contemporary American poetry through a comparative poetic analysis of the works of Louise Glück, Anne Carson, and Adrienne Rich. The study identifies three mythopoetic approaches: ideological re-reading, ontological transformation, and psychological internalization. It demonstrates that in Adrienne Rich's poetics myth functions as a tool of socio-cultural critique within feminist discourse; in Anne Carson's work, it appears as an aesthetic model of individual consciousness; and in Louise Glück's poetry, it becomes a psychological expression of subjective inner experience. The research argues that contemporary poetry has developed a new functional paradigm of mythology.

Keywords: classical mythology, contemporary American poetry, female subjectivity, intertextual interpretation, poetic transformation, Louise Glück, Anne Carson, Adrienne Rich.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab zamonaviy she'riyatda klassik mifologiyaga murojaat qilish tendensiyasi yangi bosqichga ko'tarildi. Agar modernizm davrida mifologiya, asosan, madaniy uzviylikni tiklash va tarixiy xotirani saqlash vositasi sifatida qo'llangan bo'lsa, postmodern adabiyotda u individual tajriba va sub'ektiv ongni ifodalashning muhim poetik modeli sifatida talqin qilina boshladi. Natijada mifologik syujetlar tayyor narrativ shaklida emas, balki qayta o'qiladigan, dekonstruksiya qilinadigan va yangi semantik qatlamlar bilan boyitiladigan matnlar tizimiga aylandi.

Zamonaviy she'riyatda mifning qayta tiklanishi ayniqsa feminist poetika doirasida faol namoyon bo'ldi. Feminist adabiyotshunoslik klassik matnlarni "qayta ko'rish" (re-vision) tamoyili asosida o'qib, patriarxal diskursda shakllangan obrazlarni yangi nuqtai nazardan talqin qilishni maqsad qildi. Bu yondashuvda mifologiya tarixiy meros sifatida emas, balki madaniy xotira va gender tajribasini qayta anglash vositasi sifatida qaraladi. Natijada ayol obrazlari passiv syujet elementidan faol sub'ekt darajasiga ko'tarilib, klassik narrativ struktura ichidan yangi poetik ma'nolar yuzaga chiqadi.

Mazkur jarayon intertekstual o'qish bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy shoirlar klassik miflarni takrorlashdan ko'ra, ularni yangi kontekstga ko'chiradi, parchalarga ajratadi va zamonaviy tajriba bilan uyg'unlashtiradi. Intertekstual poetika mifni yakunlangan hikoya sifatida emas, balki ochiq semantik tizim sifatida qabul qiladi. Shu bois antik obrazlar zamonaviy identitet, ruhiy bo'linish va shaxsiy xotira muammolarini ifodalash vositasiga aylanadi.

Louise Gluk, Anne Karson va Adrienne Rich ijodi aynan shu adabiy jarayonning uch turli poetik modelini namoyon etadi. Adrienne Rich klassik matnlarni ideologik va gender nuqtai nazaridan qayta o'qib, feminist poetikaning nazariy asoslarini shakllantiradi. Anne Karson mifni postmodern fragmentarlik va individual ong tajribasi orqali transformatsiya qiladi. Louise Gluk esa mifologik arxetiplarni ichki psixologik makonga ko'chirib, ularni sub'ektiv ruhiy tajribaning poetik modeli sifatida talqin etadi. Shu bois uchala shoirani qiyosiy tahlil qilish zamonaviy Amerika she'riyatida mifologiyaning qayta talqini qanday yo'nalishlarda rivojlanganini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur maqolada uch shoiraning mifga murojaati bir xil estetik tendensiya sifatida emas, balki uch xil poetik ong modeli sifatida talqin qilinadi. Richda mif ideologik rekonstruksiya, Karsonda ontologik tajriba, Glukda esa psixologik introspeksiya mexanizmi sifatida ishlaydi. Fikrimizcha, aynan shu farqlanish zamonaviy Amerika she'riyatida mifning yangi funksional paradigmatini shakllantirgan.

Zamonaviy Kanada-Amerika shoiri Anne Karson ijodida klassik mifologiya an'anaviy syujet sifatida emas, balki individual ong tajribasini ifodalovchi poetik model sifatida qayta quriladi. Uning *Autobiography of Red* (1998) asari qadimgi yunon mifologiyasidagi

Geryon haqidagi rivoyatga asoslangan bo'lsa-da, muallif mifni epik hikoya shaklida qayta bayon etmaydi. Aksincha, u fragmentar, ichki nutqqa asoslangan lirik-narrativ shakl orqali qahramonning psixologik kechinmalarini markazga chiqaradi. Natijada mif tarixiy voqea emas, balki sub'ektiv ongning poetik tajribasiga aylanadi.

Karson poetikasida mifologik obraz tashqi harakatlar orqali emas, balki qahramonning ichki idroki orqali shakllanadi. Geryon obrazi antik rivoyatlardagi dahshatli maxluq emas, balki o'z tanasi va identiteti bilan murosqa qila olmaydigan zamonaviy sub'ekt sifatida tasvirlanadi. Uning ruhiy holati sevgi, begonalashuv va o'zlikni anglash jarayonlari orqali ochiladi. Shu jihatdan, mifologik narrativ qahramonning ichki biografiyasiga aylanadi va asar nomidagi "autobiography" tushunchasi mifni shaxsiy tajriba darajasiga ko'taradi.

Karson mifni qat'iy syujet emas, balki semantik imkoniyat sifatida qo'llaydi. Asarda vaqt chiziqli rivojlanmaydi, epizodlar esa psixologik assotsiatsiyalar asosida bog'lanadi. Bu usul postmodern poetikaga xos bo'lgan fragmentarlik va ko'p qatlamlilikni yuzaga keltiradi. Mifologiya shu tariqa tarixiy qatlamdan ajralib, zamonaviy identitet muammolarini ifodalovchi ochiq matn tizimiga aylanadi.

Mazkur yondashuvni postmodern mythopoetics doirasida talqin qilish mumkin. Karson klassik mifni tiklash yoki inkor etishdan ko'ra, uni yangi ontologik sharoitga ko'chiradi. Mifologik obrazlar qat'iy ma'noga ega belgilar emas, balki shaxsiy tajribaga qarab o'zgaruvchi ramzlarga aylanadi. Geryon obrazi ham tarixiy personajdan ko'ra ichki identitetning o'zgaruvchanligini ifodalovchi poetik figura sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, *Autobiography of Red* asarida Anne Carson mifologiyani narrativ hikoya emas, balki ongiy tajriba sifatida qayta quradi. Masalan, "Geryon was a monster everything about him was red." Mazkur satrda "monster" tushunchasi tashqi dahshatli mavjudot emas, balki o'zini boshqacha his qiluvchi sub'ektning ichki identitetini anglatadi. Qahramonning qizil rang bilan identifikatsiyasi uning ontologik begonalashuvini ko'rsatadi va mifologik obraz psixologik o'zlik tajribasiga aylanishini tasdiqlaydi. Ushbu transformatsiya klassik mifning zamonaviy she'riyatdagi funksiyasini o'zgartirib, uni shaxsiy identitet va ruhiy tajribani ifodalovchi poetik vositaga aylantiradi.

Fikrta'mizcha, Carson mifni qayta talqin qilmaydi, balki uni sub'ektiv ong shakliga aylantiradi. Shu sababli uning poetikasida mif semantik manba emas, balki idrok mexanizmi vazifasini bajaradi. Bu holat postmodern mythopoeticsni intertekstual o'yin darajasidan fenomenologik tajriba darajasiga ko'taradi.

Adrienne Rich ijodi zamonaviy Amerika she'riyatida klassik mifologiyani feminist nuqtai nazardan qayta talqin qilish jarayonining nazariy va poetik asoslarini shakllantirgan muhim bosqichlardan biridir. Shoir tomonidan ilgari surilgan "re-vision" – ya'ni klassik matnni qayta ko'rish tamoyili – an'anaviy adabiy merosni yangi tajriba va yangi sub'ektivlik nuqtai nazaridan o'qishni anglatadi. Rich nazarida tarixiy matnlarni qayta o'qish shunchaki talqin emas, balki madaniy ongni o'zgartirish jarayonidir. Shu bois u klassik mifologiyani o'tmish merosi sifatida emas, balki hozirgi zamon ayol tajribasini anglash vositasi sifatida qo'llaydi.

Rich she'riyatida ayol tajribasi markaziy poetik prinsipga aylanadi. An'anaviy mifologiyada passiv yoki ikkinchi darajali bo'lib kelgan ayol obrazlari uning lirikasida faol sub'ekt darajasiga ko'tariladi. Masalan, *Diving into the Wreck* she'rida shoir tarixiy matnga kiruvchi tadqiqotchi sifatida namoyon bo'lib, madaniy xotirani qayta o'zlashtirish jarayonini tasvirlaydi. Bu yerda mifologik motiv tashqi voqea emas, balki identitetni tiklash va o'z ovozi topish jarayonining ramziy ifodasiga aylanadi. Masalan, "I came to explore the wreck."

Bu yerda "wreck" tarixiy yoki mifologik voqea emas, balki patriarxal madaniy xotiraning metaforasidir. Lirik sub'ekt uni kuzatmaydi – tekshiradi. Shu orqali mifologik matn

ob'ekt emas, interpretatsiya qilinadigan tajribaga aylanadi.

Rich mifni faqat estetik struktura sifatida emas, balki siyosiy va madaniy matn sifatida talqin qiladi. Klassik narrativlar patriarxal diskursni aks ettirganini ta'kidlab, shoira ularni yangi kontekstga ko'chiradi va ijtimoiy tajriba bilan bog'laydi. Demak, mif tarixiy rivoyat shaklidan chiqib, gender munosabatlari, hokimiyat va madaniy xotira masalalarini ochib beruvchi poetik vositaga aylanadi.

Shu jihatdan Adrienne Rich poetikasida mifologiya individual ruhiy tajribani ifodalashdan ko'ra kengroq ijtimoiy ma'noga ega bo'ladi. Uning qayta o'qish strategiyasi klassik matnni o'zgartirish emas, balki uning ichida yashirin qolgan ovozlarni yuzaga chiqarishga qaratilgan. Natijada mifologiya zamonaviy ayol sub'ektivligini shakllantirish va madaniy identitetni qayta qurish jarayonining faol elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, Rich poetikasida mif estetik struktura sifatida emas, balki interpretatsion hokimiyatni qayta taqsimlash vositasi sifatida ishlaydi. Bizningcha, Rich klassik mifni o'zgartirmaydi – u kim hikoya qilish huquqiga ega ekanini o'zgartiradi.

Louize Gluk she'riyatida klassik mifologiya tashqi narrativ tizim sifatida emas, balki inson ruhiy tajribasining ichki modeli sifatida namoyon bo'ladi. Shoira mifologik syujetni qayta hikoya qilmaydi aksincha, uni sub'ekt ongida kechayotgan ruhiy jarayonlar orqali qayta quradi. Natijada mif tarixiy voqea emas, balki ichki psixologik holatning poetik ifodasiga aylanadi. Ayniqsa, Averno to'plamida Persephone obrazi tashqi voqelik qahramoni emas, balki ichki identitetning bo'linishini aks ettiruvchi lirik sub'ekt sifatida talqin qilinadi.

Gluk poetikasida ichki monolog muhim badiiy mexanizm hisoblanadi. She'rlar dialog yoki voqealar orqali emas, balki ichki nutq orqali rivojlanadi; ovoz tashqi drammatizmga emas, ong jarayonlariga yo'naltiriladi. Bu uslub o'quvchini voqelikni kuzatuvchi emas, balki ruhiy tajriba ishtirokchisiga aylantiradi. Shoira ko'pincha qisqa sintaktik tuzilmalar va pauzalar orqali fikrning uzluksizligini emas, balki ongning uzilishlarini ifodalaydi. Shu tariqa poetik matn psixologik jarayonni bevosita his etish makoniga aylanadi. Masalan, "You are allowed to like no one, you know." Bu satr tashqi dialog shakliga ega bo'lsa-da, aslida ichki nutqdir. U Persephone obrazining mustaqillik va ajralish bilan bog'liq psixologik holatini ifodalaydi va mifologik syujetning ichki ong jarayoniga aylanganini ko'rsatadi.

Gluk ijodida arxetiplar universal ramz sifatida emas, balki individual tajriba orqali qayta talqin qilinadi. Persephone obrazi qadimgi mifdagi mavsumiy aylanish ramzidan ko'ra ko'proq shaxsiy tanlov, ajralish va mustaqillikni anglash jarayonini ifodalaydi. Arxetipning bunday sub'ektivlashtirilishi mifni kollektiv xotiradan individual ong darajasiga ko'chiradi. Mifologiya umumiy modeldan ko'ra shaxsiy identitetni anglash vositasiga aylanadi.

Gluk poetikasining yana bir muhim xususiyati – minimalistik mifologiya tamoyilidir. Shoira mifologik elementlarni keng epik tasvirlarda emas, balki qisqa va lakonik poetik shakllarda beradi. Ramzlar kam, lekin semantik jihatdan zich bo'ladi; voqealar esa izohlanmaydi, balki sezdiriladi. Shu sababli mifologiya tashqi dekoratsiya emas, balki ichki ma'no strukturasiga singib ketgan poetik qatlam sifatida ishlaydi.

Demak, Louize Gluk ijodida mifologiya epik hikoya shaklidan psixologik tajriba shakliga o'tadi. Bu jarayonda ichki monolog, arxetipning sub'ektivlashtirilishi va minimalistik ifoda usullari zamonaviy she'riyatda psixologik mythopoetics modelini shakllantiradi.

Gluk poetikasida mifning psixologik ichkilashtirilishi uni na ijtimoiy, na ontologik model sifatida qoldiradi. Fikrimizcha, aynan shu xususiyat Glukni zamonaviy mythopoeticsning uchinchi bosqichiga olib chiqadi – bu bosqichda mif interpretatsiya qilinmaydi, balki yashaladi.

Louize Gluk, Anne Karson va Adrienne Rich ijodida klassik mifologiyaga murojaat qilish turli poetik strategiyalar orqali amalga oshirilsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy

konseptual asos – mythopoetics hisoblanadi. Uchala shoira mifni tarixiy rivoyat sifatida emas, balki zamonaviy tajribani anglash vositasi sifatida qoʻllaydi. Mifologik obrazlar ularning sheʼriyatida tayyor narrativ emas, balki qayta quriladigan semantik modelga aylanadi. Shuningdek, uchala muallif poetikasida ayol subʼektivligi markaziy oʻrin tutadi. Adrienne Rich ayol tajribasini ijtimoiy va madaniy kontekstda tiklasa, Anne Karson uni individual ongning ichki dramasi sifatida koʻrsatadi, Louise Gluk esa ruhiy identitetning ichki boʻlinishi orqali talqin qiladi. Shu tariqa mifologiya ayol tajribasini ifodalashning universal poetik vositasiga aylanadi.

Ularni yana bir birlashtiruvchi jihat – klassik matnni qayta talqin qilish strategiyasidir. Har uchala shoira antik mifni takrorlamaydi; balki uni zamonaviy tajriba bilan bogʻlab, yangi semantik qatlam hosil qiladi. Shu tariqa mif yakunlangan hikoya emas, balki ochiq interpretativ tizim sifatida namoyon boʻladi.

Ularning poetikasidagi asosiy farq poetik ovoz xarakterida namoyon boʻladi. Adrienne Richda ovoz manifestativ va ijtimoiy yoʻnaltirilgan boʻlsa, Anne Karsonda intellektual va ironik, Louise Glukda esa sokin va introspektiv xususiyat kasb etadi. Ushbu farq mifologiyaning qanday qabul qilinishiga ham taʼsir koʻrsatadi.

Identitet modeli ham turlicha quriladi. Rich identitetni ijtimoiy ong va tarixiy xotira orqali shakllantiradi. Karson identitetni oʻzgaruvchan va fragmentar holat sifatida koʻrsatadi. Gluk esa identitetni ichki ruhiy tajriba va ongosti jarayonlari bilan bogʻlaydi. Natijada mifologik obrazlarning funksiyasi ham har xil talqin etiladi.

Mifning funksiyasi Rich poetikasida ideologik va madaniy tanqid vositasiga, Karson ijodida estetik va ontologik tajriba modeliga, Gluk sheʼriyatida esa psixologik introspeksiya shakliga aylanadi. Shu jihatdan uchala shoiraning mythopoetics modeli zamonaviy sheʼriyatdagi mif talqinining uch asosiy yoʻnalishini tashkil etadi.

Demak, uch shoiraning poetikasida mif bir xil manbadan kelib chiqsa-da, ularning funksiyasi tubdan farq qiladi. Fikrimizcha, bu farq estetik emas, balki ontologik xarakterga ega. Rich mifni ijtimoiy haqiqatni qayta quradi, Karson mavjudlikni anglashni tajriba qiladi, Gluk esa subʼektning ichki mavjudlik chegaralarini ochadi.

XX–XXI asr Amerika sheʼriyatida mifologiya endi epik xotira yoki tarixiy dekoratsiya emas, balki identitet va ongni anglash vositasiga aylangan. Gluk, Karson va Rich ijodi ushbu jarayonning uch turli poetik yoʻnalishini ifodalaydi: ideologik qayta oʻqish, ontologik transformatsiya va psixologik ichkilashtirish. Y. Asmanning fikricha, ularning ijodi natijasida mifologiya postmodern adabiyotda yangi funksiyani – subʼektiv tajribani universallashtirish vazifasini bajaradi.

Bu holat postmodern mif paradigmasining shakllanganini koʻrsatadi. Klassik rivoyatlar qatʼiy maʼnoga ega tizim sifatida emas, balki ochiq semantik maydon sifatida qabul qilinadi. Oʻquvchi mifni oʻtmish haqidagi hikoya sifatida emas, balki hozirgi ong tajribasining modeli sifatida oʻqiydi. Shu tariqa zamonaviy Amerika sheʼriyatida mifologiya individual va kollektiv xotira oʻrtasidagi koʻprikkaga aylanadi.

Demak, Louise Gluk, Anne Karson va Adrienne Rich ijodi zamonaviy sheʼriyatda klassik mifologiyaning qayta talqin qilinishining uch asosiy modelini namoyon etadi. Rich mifni ijtimoiy va gender ongini tiklash vositasi sifatida qoʻllasa, Karson uni ontologik va estetik tajriba shakliga aylantiradi, Gluk esa psixologik ichki makon orqali talqin qiladi. Natijada mifologiya tarixiy rivoyatdan zamonaviy subʼektivlikni anglash mexanizmiga oʻtadi.

Mazkur poetik yoʻnalishlar postmodern adabiyotda mifning yangi paradigmasini shakllantirib, uni universal insoniy tajribani ifodalovchi ochiq semantik tizim darajasiga koʻtaradi. Shu jihatdan uchala shoiraning ijodi zamonaviy Amerika sheʼriyatida mifologik tafakkurning yangilanish jarayonini belgilovchi muhim adabiy hodisa sifatida baholanishi

mumkin. Shu tariqa zamonaviy Amerika she'riyatida mifologiya uch bosqichli transformatsiyani boshdan kechirganini ko'rish mumkin: ideologik rekonstruksiya (Rich), ontologik tajriba (Carson) va psixologik ichkilashtirish (Glück). Mazkur model zamonaviy mythopoetikaning evolyutsion tipologiyasini shakllantiradi deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Assmann, Jan. Cultural Memory and Early Civilization. – Cambridge University Press, 2011. – 451 P.
2. Carson, Anne. Autobiography of Red. – New York: Vintage Books, 1998. – 459 P.
3. Hutcheon, Linda. A Poetics of Postmodernism. – New York: Routledge, 1988. –
4. Jung, C. G. The Archetypes and the Collective Unconscious. – Princeton: Princeton University Press, 1981. – 425 P.
5. Kristeva, Julia. Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. – New York: Columbia University Press, 1980. – 467 P.
6. Rich, Adrienne. When We Dead Awaken: Writing as Re-Vision. – New York: W. W. Norton, 1972. – 522 P.
7. Rich, Adrienne. Diving into the Wreck. – New York: W. Norton, 1973. – 324 P.
8. Vendler, Helen. Poems, Poets, Poetry. – Boston: Bedford/St. Martin's, 2009. – 420 P.